

INSON KAPITALIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI (SINGAPUR DAVLATI MISOLIDA)

Axmadaliyeva Niholaxon

Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

Email: axmadaliyevanihola@gmail.com

ORCID: 0000-0002-9020-3754

ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE OF ATTRACTING INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL (IN THE CASE OF THE COUNTRY OF SINGAPORE)

Akhmadaliyeva Niholaxon

Doctoral student of the Tashkent Institute of Finance

Email: axmadaliyevanihola@gmail.com

ORCID: 0000-0002-9020-3754

JEL Classification: D00, D2, D25

Annotatsiya. Mazkur maqolada insonga kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimligi hamda ahamiyati kabilar keltirib o'tilgan. Inson kapitalining asosiy omillari bo'lmish sog'liqni saqlash hamda ta'lim sohalarini rivojlantirish mamlakat aholisini kelajakdagi foydalilik darajasini oshirish uchun asoslanadi. Shuningdek, inson kapitalining nazariy asoslari, iqtisodchi olimlarning inson kapitali to'g'risidagi nazariy qarashlari keltirilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yaxshilashda rivojlangan mamlakatlardan biri Singapur davlatining tajribalarini tahlil etilgan. Singapur davlati inson kapitali indeksida eng yuqori o'rinda turishi hamda Singapurning ta'lim va sog'liqni saqlash strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlagan bir qancha omillari ko'rsatilgan. Singapur inson kapitalini yangilash qanday qilib rivojlanishni tezlashtirishi va resurslar kambag'al iqtisodiyotida qashshoqlikni keskin kamaytirishi mumkinligini ko'rsatdi. Siyosatni ishlab chiqish maqsadlarida foydalanish uchun ma'lumotlarni to'plash va

tahlil qilish, o'ziga va boshqalarga yuqori talablar qo'ygan va bu me'yorlarga amal qilgan qobiliyatli rahbarlar Singapur davlatining asosiy strategiya omillaridan hisoblandi. Singapur meritokratik va asosan siyosiyashtirilmagan byurokatiyani yaratdi, u strategiyalash, uzoqni ko'ra oladigan siyosat yuritish va ularni muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirish imkonini berdi. Muvofiqlashtirilgan amalga oshirish natijalarga erishishning kaliti hisoblandi, Shuni ta'kidlash kerakki, milliy yetakchilik ko'p millatli jamiyatda uyg'unlikni saqlab qoldi va keskinlikni faol ravishda bartaraf etdi. Singapur malakali va malakasiz muhojirlarni jalb qilishi hamda puxta ishlangan infratuzilma, uy-joy va boshqa muhim investitsiyalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynagan ichki resurslarni safarbar qilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi omillardan hisoblanadi. Singapur hech qachon erishgan yutuqlari bilan to'xtab qolmagan, har doim g'oyalarga ochiq, o'rganishga ishtiyoqli, innovatsiyalar kiritishga va yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyor davlat bo'lishi uning inson kapitali indeksini

yuqori ekanligiga asosdir. Singapur davlatining inson kapitali indeksini oshirish uchun ishlab chiqqan strategiyasidan foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun juda muhimdir. Singapur davlatining inson kapitali indeksida yuqori nuqtani saqlab qolishini tahlil etish jaroyonida ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan havolalalr keltirilgan.

Abstract. In this article, the importance and importance of investments in human capital for the country's economy are mentioned. The development of the health and education sectors, which are the main factors of human capital, is the basis for increasing the level of future usefulness of the country's population. Also, the theoretical foundations of human capital, the theoretical views of economists on human capital are presented. The experiences of one of the developed countries in improving the economy of our country, Singapore, have been analyzed. Singapore ranks high on the Human Capital Index and highlights several factors that have contributed to the successful implementation of Singapore's education and health strategies. Singapore has shown how upgrading human capital can accelerate development and dramatically reduce poverty in a resource-poor economy. Competent leaders who set high standards for themselves and others and adhere to these standards have been key strategic factors of the Singaporean state, gathering and analyzing information for use in policy development. Singapore has created a meritocratic and largely depoliticized bureaucracy that allows for strategic, visionary policy making and coordinated implementation. Coordinated implementation was considered key to achieving results. It should be noted that national leadership maintained harmony and proactively resolved tensions in a multi-

ethnic society. Singapore's attraction of skilled and unskilled immigrants and mobilization of domestic resources, which play an important role in financing well-designed infrastructure, housing and other important investments, are among the factors that develop the country's economy. The fact that Singapore is a country that never stops with its achievements, is always open to ideas, eager to learn, ready to introduce innovations and use new technologies is the reason for its high human capital index. Using the strategy developed by Singapore to increase the human capital index is very important for the economy of our country. References are made to the conclusions and proposals developed in the process of analyzing Singapore's retention of a high point in the human capital index.

Kalit so'zlar. inson kapitali, inson kapitalli omillari, inson kapitali indeksi, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, inson kapitalini shakllantirish.

Keywords. human capital, human capital factors, human capital index, education system, health care, human capital formation.

Kirish. Inson kapitalini rivojlantirish uchun qilinadigan investitsiyalar hajmi jamiyatning taraqqiyot darajasini, ertasini belgilab beradigan asosiy ko'rsatkichlardan sanaladi. Ta'lim tizimi va salomatlik inson kapitalini eng samarali rivojlantiruvchi investitsiyalar tarkibiga kiruvchi muhim ahamiyatga ega investitsiyalardir.

Sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga investitsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shadi. Eng samarali investitsiyalar bugungi kunda tug'ilgan bolalarga kattalardek faol fuqaro bo'lishga imkon beradigan investitsiyalardir. Buning sababi shundaki, inson kapitali - aholining jamlangan salomatligi, ko'nikmalari va bilimlari - milliy iqtisodiy o'sish va

barqarorlikning eng katta harakatlantiruvchi kuchidir.

Mamlakat boyligining qariyb 70 foizi yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitaliga to'g'ri keladi, past va o'rtadan past daromadli mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 40 foizdan sal ko'proqdir [1]. Ushbu topilma kambag'al mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikka qo'shadigan potentsial hissasi yetarli darajada foydalanilmaganligini ko'rsatadi va inson kapitalini maksimal darajada oshirish uchun investitsiyalarni maqsadli yo'naltirish mamlakatlar va ularning aholisini teng darajada joylashtirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Material va Metod. Inson kapitali konsepsiyasi XVII asrda paydo bo'lgan deb hisoblanadi. Uni birinchilardan bo'lib 1676-yilda Uilyam Petti urushda qurollarni yo'qotishni inson hayotini yo'qotish bilan taqqoslash asosida qo'lladi [1].

V. Petti boylig va uning manbalari tarkibiga yer va u keltiradigan renta, kapital va undan olinadigan foyda (foiz) bilan bir qatorda odamlarning mehnati, malakasi va sog'lig'iga bog'liq ravishda, u yoki bu turdagi daromad keltirishini ko'rsatgan. Olimning fikriga ko'ra, inson kapitalining miqdori xodimning butun umri davomidagi ish haqi kapitalashishi bilan baholanadi [2].

A.Smit, D.Rikkardo nazariyasi bo'yicha kapital barcha ishlab chiqarish vositalarni (to'plangan va moddiylashtirilgan mehnat) anglatgan [3]. P.Samuelson va U.Nordxauz fikricha "kapital – iqtisodiyot tomonidan boshqa tovarlarni ishlab chiqarish uchun yaratilgan uzoq muddatli foydalanish ne'matlaridan iborat" [4].

"Zamonaviy iqtisodiy lug'atda" kapital keng ma'noda daromad olib keladigan barcha narsa yoki tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun odamlar tomonidan yaratilgan resurslar deb ta'riflansa, tor ma'noda ishlab chiqarish

vositasi sifatida ishga tikilgan daromad mabaidir deyiladi [5].

Neoklassiklar kapital qo'yilmalar deganda joriy iste'moldan voz kechish va kelajakda ma'lum bir daromad olishni ta'minlaydigan har qanday xarajatlarni tushunishgan.

Kengaytirilgan konsepsiya tarafdori bo'lgan Amerikalik iqtisodchi Dj. Kendrik kapital deganda, ma'lum bir vaqt mobaynida mahsulot va daromad, (daromadning nobozor shakllarini hisobga olgan holda) yaratish qobiliyatini tushunadi [6]. Bu ta'rif asosida milliy boyligning to'planadigan, ishlab chiqarishdagi foydalaniladigan va daromad ta'minlaydigan barcha unsurlariga kapital sifatida qaraladi [7].

XX asr boshlarida Amerikalik iqtisodchi I. Fisher turli maktab yutuqlarini birlashtirib "kapital deb, ma'lum bir vaqt mobaynida daromadlar oqimini ta'minlaydigan har qanday narsani tushunish kerak deydi va har qanday daromad qandaydir kapital turining mahsuloti sifatida yuzaga chiqadi" [8].

Ko'rib chiqilgan ta'riflardan xulosa qilib, uzoq muddat davomida samarali foydalanish mumkin bo'lgan daromad ta'minlaydigan to'planish (jamg'arilish) xususiyatiga ega har qanday ne'mat zaxirasi kapital sifatida qaralishi mumkin, desak bo'ladi. Bundan kelib chiqib, insonning qobiliyatlari, bilimi, malakasi kapitalning maxsus shakli sifatida qabul qilinishi mumkin. Ishchining ishlab chiqarish xususiyatlarining maxsus kapital shakli sifatida qaralishiga sabab shuki, bu kabi xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun ma'lum bir vaqt va moddiy xarajatlar talab qilinadi, shuningdek boshqa moddiy (jismoniy) kapital singari o'z egasiga yuqori moddiy manfaat (daromad) ta'minlaydi. So'nggi o'n yilliklarga kelib kapital faqatgina moddiy (jismoniy) aktivlardan iborat degan fikr o'z kuchini yo'qotdi. Endi kelajakda

daromad oqimini ta'minlay oladigan har qanday aktiv u moddiy yoki insoniy kapitaldir degan fikrga kelindi.

Mamlakat iqtisodiyotini yaxshilash, YaIM hajmini oshirish, ishsizlik sonini kamaytirish, ekologiyani yaxshilash hamda gender tengligini muvozzatda saqlashga bir qator ilmiy hamda amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Chunki jahon iqtisodiyotidagi tendensiyalar inson taraqqiyoti indeksi darajasini yuqori hamda raqobatbardoshlikni talab etmoqda. Shu boisdan ilmiy maqolada inson kapitali va uning omillarini nazariy-uslubiy asoslarini hamda xalqaro standartlarga javob bera oladigan ta'lim tizimini ta'minlashdagi rolini tadqiq etish, tadqiqot natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosli tahlil, iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalanildi.

Natijalar. Inson kapitaliga investitsiyalarni qanday yo'naltirish bo'yicha fikr yuritish uchun yangi vosita bor - va u to'g'ridan-to'g'ri sog'liqni saqlash va ta'lim natijalariga qaratilgan. Jahon banki tomonidan yaqinda e'lon qilingan Inson kapitali indeksi mamlakatlarda bolalarning omon qolishi, bolalik davridagi bo'ying o'sishi, shuningdek, 18 yoshga to'lgunga qadar ega bo'lishi mumkin bo'lgan ta'lim sifatini qamrab oluvchi jamlangan ko'rsatkichlarga nisbatan qanday baholanishini taqqoslaydi. Ushbu indeks sog'liqni saqlash va ta'limga investitsiyalar bir tanganing ikki tomonini tashkil etishini eslatadi; ya'ni sog'liqni saqlash va ta'limga investitsiyalar aholini iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik va o'z-o'ziga ishonchni oshirish yo'liga kirishi uchun bolalik davrida ham, balog'at yoshida ham zarur.

Inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalarni jalb etishning xorij tajribalarini tahlil etishda Singapur davlatini ko'rib chiqamiz. Inson kapitaliga sarmoya

kiritish yuqori foyda keltirishini va imkonsiz narsa yo'qligini ko'rsatdi. Singapur modelining ko'plab elementlari bugungi kunda an'anaviy andoza hisoblanadi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar shunga o'xshash strategiyalarni amalga oshirishga harakat qilgan bo'lsa-da, bir nechtasi shunga o'xshash natijalarga to'liq erisha oldi. Ushbu amaliy tadqiqot Singapurning 1960-yildan hozirgi kungacha boshqa iqtisodlardan oldinga siljish uchun olib borgan siyosatlarini, dasturlari va jarayonlarini amalga oshirishda katta rol o'ynamoqda.

U Singapurning ta'lim va sog'liqni saqlash strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlagan bir qancha omillarni ko'rsatadi [9]:

- birinchidan, siyosatni ishlab chiqish maqsadlarida foydalanish uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;
- ikkinchidan, o'ziga va boshqalarga yuqori talablar qo'ygan va bu me'yorlarga amal qilgan qobiliyatli rahbarlar;
- uchinchidan, Singapur meritokratik va asosan siyosiyashtirilmagan byurokrtiyani yaratdi, u strategiyalash, uzoqni ko'ra oladigan siyosat yuritish va ularni muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirish imkonini berdi. Muvofiqlashtirilgan amalga oshirish natijalarga erishishning kalitidir;
- to'rtinchidan, milliy yetakchilik ko'p millatli jamiyatda uyg'unlikni saqlab qoldi va keskinlikni faol ravishda bartaraf etdi.
- beshinchidan, Singapur malakali va malakasiz muhojirlarni jalb qildi;
- oltinchidan, puxta ishlangan infratuzilma, uy-joy va boshqa muhim investitsiyalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynagan ichki resurslarni safarbar qildi;
- yettinchidan, Singapur hech qachon erishgan yutuqlari bilan to'xtab qolmagan, har doim g'oyalarga ochiq,

o'rganishga ishtiyoqli, innovatsiyalar kiritishga va yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyor davlatdir.

Dunyo bo'ylab hukumatlar o'z ishchi kuchining inson kapitalini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish qobiliyatiga qarab farqlashadi. Ba'zi hukumatlar ta'lim

ko'paytirish uchun kelajakda nima qilish mumkinligini ham o'rganadi.

Rivojlanayotgan mamlakatda inson kapitalining sifati tabiiy resurslar bilan ta'minlanganmi yoki yo'qligidan qat'i nazar, ustuvor bo'lishi kerakligiga shubha yo'q. Singapur inson kapitalini yangilash qanday

Maqsadlarga asoslangan byurokratiyani yig'ish	Biznes tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish	Infratuzilmani qurish	Past malakali ishlab chiqarishni boshlash	Texnik ko'nikmalarni shakllantirish	Kompleks sog'liqni saqlash tizimini yaratish
	Sanoatni rivojlantirish			Maktabga kirishga e'tibor qaratish	Ta'lim sifatini oshirish

yutuqlarining standartlashtirilgan testlari va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy ravishda dunyodagi eng yaxshi ko'rsatkichlar qatoriga kiradi, boshqalari esa hatto eng oddiy xizmatlarni taqdim etish uchun kurashadi.

Ko'pgina mamlakatlarda natijalar yaxshilangani haqidagi global dalillar tobora ortib bormoqda. Biroq, bu mamlakatlar o'z natijalariga erishish uchun foydalangan siyosat, dastur va jarayonlar haqida kamroq dalillar mavjud. Bu mamlakatlar o'z xalqiga qanday sarmoya kiritganligi va nima samarali bo'lgan va nima bo'lmagani haqida ma'lumotga ega bo'lish boshqa hukumatlar uchun foydali bo'lardi, chunki ular o'z natijalarini yaxshilashga intiladilar. Ushbu amaliy tadqiqotning maqsadi 2018-yilgi inson kapital indeksining global reytingida birinchi o'rinni egallagan Singapurning inson kapitalini rivojlantirish trektoriyasini baholashdan iborat [10]. U ushbu trektoriyani boshqargan omillarni o'rganadi va bu tajribadan saboq oladi. Tadqiqot nafaqat yaxshilanishlarga qanday erishilganligini, balki hukumatning o'z xalqiga investitsiyalarini davom ettirish va

qilib rivojlanishni tezlashtirishi va resurslar kambag'al iqtisodiyotida qashshoqlikni keskin kamaytirishi mumkinligini ko'rsatdi va uning tajribasi Sharqiy Osiyodagi boshqa shunga o'xshash iqtisodlar tomonidan tasdiqlangan

Umumjahon boshlang'ich ta'limni ta'minlash, o'qituvchilar sifatiga e'tibor berish, xususan, asosiy fanlariga e'tibor qaratish, qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarni to'plash, maktablar boshqaruvini kuchaytirish, maktablar va o'quvchilar faoliyatini tizimli ravishda baholash va xarajatlarni nazorat ostida ushlab turish an'anaviy metodning asosi hisoblanadi. Xuddi shunday, kasalliklarni bartaraf etish, o'tkir tibbiy yordamga emas, balki profilaktika va birlamchi yordamga e'tibor qaratish, sog'liqni saqlash xarajatlarini jamoatchilik va hukumat o'rtasida taqsimlash ham boshqa mamlakatlarning asosiy maqsadlaridan biridir. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining inson kapitalini yaratish va takomillashtirishda barqaror yutuqlarga erishdilar, biroq ularning ko'rsatkichlaridan to'liq qoniqish hosil qilishgan va ularni amalga oshirish

qobiliyatini oshirish keng e'tirof etilgan ustuvor vazifadir. Singapurning inson kapitalini shakllantirish bo'yicha ta'lim va sog'liqni saqlash strategiyalarini

1-rasm. Singapur rivojlanish strategiyasining elementlari [11]

Hudud jihatidan kichik bo'lgan davlatda ma'lumotlarni yig'ish va siyosatni amalga oshirish osonroq, biroq raqamli texnologiyalar barcha mamlakatlarga ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish hamda ularni siyosat ishlab chiqish maqsadlarida ishlatishni osonlashtirmoqda.

Munozara. Mustaqillikka erishganidan beri Singapur Xalq harakati partiyasi (XHP) tomonidan boshqarib kelinmoqda, yaqin vaqtgacha boshqa partiyalarning qarshiliklari kam edi. Singapur o'zi va boshqalar uchun yuqori standartlarni qo'yadigan va bu standartlarga amal qilgan rahbarlar tomonidan boshqarilishi baxtiga muyassar bo'ldi. Yuqori axloq va faoliyat standartlarini qo'llab-quvvatlagan holda, boshqa mamlakatlardagi siyosiy rahbarlar o'z iqtisodiy salohiyatini ishga solishi mumkin.

1960-yillardan boshlab Singapur hukumati strategiyalash, uzoqni ko'zlab siyosat yuritish va ularni muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirishga qodir bo'lgan meritokratik va asosan siyosiy lashtirilmagan byurokriyani yaratishga kirishdi. Muvofiqlashtirilgan amalga oshirish muhim ahamiyatga ega edi, chunki hukumat natijalarni berishdan faxrlanardi va mamlakatning omon qolishi barqaror iqtisodiy taraqqiyotga bog'liqligini to'liq angladi.

Shuningdek, tegishli nuqtada, mahalliy inson kapitali va ishchi kuchini to'ldirish uchun Singapur ko'p sonli immigrantrlarga bog'liq bo'lib, ularning ba'zilar doimiy rezidentlarga aylangan, boshqalari esa vaqtinchalik vizada. Chet ellik ishchilar va mahalliy aholi o'rtasidagi kelishmovchiliklarni minimallashtirish bilan

muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlagan yetti omilga olib keladi, ularni boshqa joylarda takrorlash qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan omillar (1-rasm).

birga, bu heterojen ishchi kuchini integratsiya qilish va samarali ishlatish ham mohir boshqaruvni talab qildi.

Rahbariyat Markaziy Ta'minot Jamg'armasi (MTJ) orqali ichki resurslarni boshqa kam sonli davlatlar erisha olmaydigan darajada safarbar qila oldi. MTJ infratuzilma, uy-joy va boshqa muhim investitsiyalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, u Medisave (sog'liqni saqlash tizimidagi jamg'arma tashkilot) orqali sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatladi va fuqarolarning o'z farovonligi uchun mas'uliyatini oshirdi.

Nihoyat, Singapur har doim g'oyalar uchun ochiq va o'rganishga ishtiyoqli bo'lib, samaradorlikni oshirish va raqobatchilardan bir qadam oldinda qolish uchun innovatsiyalarga va yangi texnologiyalardan (masalan, elektron hukumat va ta'lim va sog'liqni saqlashda elektron hujjatlardan foydalanish) foydalanishga tayyor [12]. Masalan, hukumat nomoddiy kapitalni (masalan, intellektual mulk), dizayn, brendlar va firmaga xos bilimlar) [13] va Milliy tadqiqot fondi kabi agentliklarni faol ravishda qurmoqda. O'sishni rag'batlantirish uchun inson kapitali, infratuzilma va innovatsiyalarga doimiy e'tibor boshqa mamlakatlar taqlid qilishi mumkin.

Singapur inson kapitaliga sarmoya kiritish yuqori foyda keltirishini va imkonsiz narsa yo'qligini ko'rsatdi. Uning namunasi boshqalarni o'z sa'y-harakatlarini ikki baravar oshirishga ilhomlantirishi kerak, Singapur modelini to'liq takrorlash uchun emas, balki uning muvaffaqiyatli rivojlanish strategiyasining o'rganish mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatizda ilgari surilayotgan tashabbuslar, keng ko'lamli chora-tadbirlarni natijasida fuqarolarning ta'lim-tarbiyasi yo'nalishida jahon standartlari darajasiga erishishga qaratilgan bo'lib, bu harakatlar albatta o'z samarasini berishi shubhasiz. Hozirgi kunda jamiyatimiz bilimga asoslangan o'zaro ahillik va hamjihatlik kayfiyati Uchinchi Renessans eshiklarini ochib beradi. Singapur davlatining inson kapitali indeksini oshirish uchun ishlab chiqqan strategiyasidan foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun juda muhimdir. Singapur davlatining inson kapitali indeksida yuqori nuqtani saqlab qolishini tahlil etish jaroyonida quyidagi xulosalarga kelindi:

- mamlakatni boshqarishda quyidan yuqorigacha barcha pog'onalarida yuqori talablarga javob beradigan hamda qobiliyatli kadrlarni jalb etish;
- norezident hamda rezident fuqarolarni malakasiga qarab ish bilan ta'minlash;

- ichki investitsiya miqdorini oshirish orqali infratuzilmani rivojlantirish;
- mamlakatni rivojlantirishda har bir sohani innovatsiyalar va yangi texnologiyalar bilan boyitishga erishish;
- yosh kadrlarni yangi g'oyalarini hamda yutuqlarini rag'batlantirish;
- mamlakat potesialinidan kelib chiqib yirik sanoat zonalarini rivojlantirishga erishish;
- maktabgacha ta'limdan to oliy o'quv yurtigacha ta'lim sifatini nazorat qilish hamda to'g'ri kasbga yo'naltirish;
- sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish, profilaktika ishlari uchun investitsiya miqdorini oshirish.

Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlarni ayrimlarini mamlakatimizga joriy etish uchun sa'y-harakatlar boshlangan. Shunday ekan, rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan oqilona foylanib, tajriba qilish mamlakatimizning inson kapitali indeksini oshirishda, insonlarning yashash sharoitini yaxshilashga zamin yaratishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lange, Glenn-Marie; Wodon, Quentin; Carey, Kevin. 2018. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. ©WorldBank. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/29001> License: CC BY 3.0 IGO.
2. Vilyam Petti (William Petty, 1623—1687) — ingliz iqtisodchisi, Angliyada klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri. Asosiy asari: —Soliqlar va yig'imglar to'g'risida traktat II (—Treatise of taxes and contributions, 1662).
3. Петти В. Экономические и статистические работы / Петти В. Том 1. – М.: Соцэкгиз, 1940. - С.156.
4. А. Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов // Антология экономической классики. М, 1993, Т.1.с. 382., Д. Риккардо начало политической экономии и налогового обложение. Т.1.М., 1993.с.417
5. Самуэльсон П., Нордхауз У. экономика.М.,1997. с.784.
6. Кендрик Дж. Совокупный капитал США и его формирование. М. Прогресс. 1978.с.8
7. Schultz T Investment in Human capital // Economic Growth - an American problem. Englewood Cliffs. 1964. p.58
8. Fisher T. The nature of capital and Income L.1927



9. BUILDING HUMAN CAPITAL LESSONS FROM COUNTRY EXPERIENCES. How Singapore Does It. Shahid Yusuf Growth Dialogue Washington, DC. July 2020.
10. Human capital index report 2018.
11. Building Human Capital Lessons from Country Experiences Singapore. Manba: <https://databank.worldbank.org/>
12. Then-Prime Minister Lee observed that, "70 percent of the governance ideas in Singapore were learned and adapted from elsewhere." The location of Changi Airport, the training of the Singapore military, making Singapore a garden city, and the appraisal system of the civil service among others drew from the experience institutions, and practices of other countries.
13. Firms in Singapore are investing more in intangible capital with the stock having increased by 30 percent per annum between 2013 and 2016 (IMF, 2018).